

ADABIY TA'LIMDA O'QUVCHILAR MUSTAQIL ISHLARINI DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH MASALALARI

Xoliqova Anora Abdisattorovna

**Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU mustaqil tadqiqotchisi,
Toshkent raqamli iqtisodiyot va servis texnikumi ona
tili va adabiyot fani o'qituvchisi
anoraholikova1509@gmail.com**

<https://orcid.org/0009-0006-9276-5001>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21671634>

Annotatsiya. Mazkur maqolada adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil ishlarini differensial yondashuv asosida tashkil etishning nazariy va metodik jihatlari yoritilgan. O'quvchilarning individual qobiliyati, bilim darajasi, qiziqishi hamda o'quv ehtiyojlarini hisobga olgan holda mustaqil ishlarni loyihalash tamoyillari tahlil qilingan. Shuningdek, differensial topshiriqlarni ishlab chiqish, ularni baholash mezonlari va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida samarali tashkil etish yo'llari bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: adabiy ta'lim, mustaqil ish, differensial yondashuv, individual ta'lim, tabaqalashtirilgan topshiriqlar, o'quvchi kompetensiyasi, pedagogik texnologiyalar, adabiyot darslari.

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations of organizing students' independent learning activities in literary education based on a differentiated approach. The study analyzes the principles of designing independent tasks by considering students' individual abilities, academic achievement, interests, and learning needs. Furthermore, it provides methodological recommendations for developing differentiated assignments, establishing assessment criteria, and effectively implementing modern pedagogical technologies to enhance the quality of literary education.

Keywords: literary education, independent learning, differentiated approach, individualized instruction, differentiated tasks, student competence, pedagogical technologies, literature teaching.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и методические основы организации самостоятельной работы учащихся в процессе литературного образования на основе дифференцированного подхода. Проанализированы принципы проектирования самостоятельных заданий с учетом индивидуальных способностей, уровня подготовки, познавательных интересов и образовательных потребностей учащихся. Особое внимание уделено разработке дифференцированных заданий, критериям их оценивания и использованию современных педагогических технологий для повышения эффективности литературного образования.

Ключевые слова: литературное образование, самостоятельная работа, дифференцированный подход, индивидуализация обучения, дифференцированные задания, компетентность учащихся, педагогические технологии, урок литературы.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimidagi islohotlarning bosh maqsadi – o'quvchini nafaqat bilim oluvchi, balki mustaqil fikrlaydigan, ijodkor shaxs sifatida shakllantirishdir. Ayniqsa, adabiyot darslarida badiiy matn bilan ishlash, asar mohiyatini anglash va shaxsiy munosabat bildirish jarayoni o'quvchining intellektual salohiyatini belgilab beradi. Biroq, sinfdagi o'quvchilarning badiiy tafakkuri, matnni qabul qilish tezligi va qiziqishlari bir xil emasligi

an'anaviy ta'lim usullarining samaradorligini pasaytirmoqda. Shu sababli, adabiyot ta'limida differensial (tabaqalashtirilgan) yondashuv asosida mustaqil ishlarni tashkil etish dolzarb pedagogik zaruratga aylandi.

Differensial yondashuvning mohiyati shundaki, u o'quvchining individual xususiyatlarini – bilim darajasi, qiziqishlari va psixologik tayyorgarligini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi [2]. Adabiyot darslarida mustaqil ishlarning tabaqalashtirilishi "kuchsiz" o'quvchida muvaffaqiyat tuyg'usini uyg'otsa, "kuchli" o'quvchining ijodiy izlanishlarini rag'batlantiradi.

Adabiy ta'limda differensial yondashuv – bu o'quvchilarning individual xususiyatlari, qiziqishlari va o'zlashtirish darajasini hisobga olgan holda o'qitish jarayonini tashkil etishdir. Bu yondashuvning dolzarbligi shundaki, adabiyotga mehri baland kuchli o'quvchilarning o'sishini ta'minlaydi. Shu bilan bilan bir qatorda, badiiy asarni tahlil qilishga qiynaladigan o'quvchilarning fanga qiziqishini uyg'otishga yordam beradi. Differensial yondashuv o'quvchilarning didi va shaxsiy qiziqishiga mos asarlar yoki topshiriqlar tanlash imkonini beradi, bu esa majburiylik emas, balki ixtiyoriylik hissini uyg'otadi. Differensial yondashuv esa har bir o'quvchiga o'z kuchi yetadigan vazifani berish orqali unda "muvaffaqiyat tuyg'usi"ni uyg'otadi. Bu esa adabiyotga bo'lgan mehrni oshiradi. Differensial yondashuv orqali o'qituvchi har bir bolaning emosional olamiga kirib bora oladi. Differensial yondashuv o'quvchi salohiyati, qiziqishiga moslashtirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Zamonaviy ta'lim standartlari o'quvchilarning bilim, balki ko'nikma va malakalarni (kompetensiyalarni) shakllantirishni talab qiladi. Differensial topshiriqlar tizimida:

1. Reproduktiv daraja: Asar voqealarini gapirib berish.
2. Produktiv daraja: Qahramonlar xarakterini tahlil qilish.
3. Ijodiy daraja: Asarning muqobil yechimini yozish yoki muammoni bugungi kun bilan bog'lash muhim hisoblanadi.

Amaliy misol:

Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanini o'tishda:

- 1-guruh (ijodkorlar): Asar asosida sahna ko'rinishi yoki videorolik tayyorlaydi.
- 2-guruh (munaqqidlar): Otabek va Kumush obrazining ijobiy va salbiy tomonlarini bahs qiladi.
- 3-guruh (tilshunoslar): Asarda qo'llanilgan eskirgan so'zlarning lug'atini tuzadi.

Ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilishi, har bir o'quvchining alohida shaxs ekanligini tan olinishi "hammani bir xil qolipga solish" emas, balki har bir o'quvchiga o'zining kuchli tomonlarini namoyish etish uchun sharoit yaratadi. Ayniqsa, o'quvchining ichki imkoniyatlarini ochishda muhim ahamiyatga ega:

- Iqtidorli o'quvchilar uchun: Ularning tahliliy va ijodiy fikrlashini chegaralamasdan, murakkabroq va mustaqil tadqiqot xarakteridagi topshiriqlar berish orqali ularni yanada o'stirish. Bunday o'quvchilar bilan ishlashda asosiy muammo ularning potensialini to'liq ro'yobga chiqarish, doimiy ravishda ruhlantirib turishdir. Agar kuchli o'quvchilarga yetarlicha diqqat qaratilmasa, ular tezda motivatsiyasini yo'qotadi, darslarda bo'sh vaqtini o'tkazadi [7].

- O'zlashtirishi past o'quvchilar uchun: Ulardagi "muvaffaqiyatsizlik qo'rquvi"ni yengish va soddalashtirilgan, tushunarli topshiriqlar orqali asar mazmunini anglatish. Ular bilan ishlashda asosiy vazifa- sabr-qanoat bilan ularning muammolarini aniqlash va individual yordam ko'rsatishdir [6].

Adabiy ta'limda differensial yondashuvning maqsadi o'quvchilarni uch xil darajada fikrlashga o'rgatishdir:

Daraja 1: Tanishish (Matnni o'qish va mazmunini bilish)

Daraja 2: Tahlil (Qahramonlar va badiiy tasvir vositalarini o'rganish)

Daraja 3: Sintez va Baholash (Asarga shaxsiy munosabat va ijodiy xulosa)

Adabiy ta'limda differensial yondashuvning ilmiy yangiligi an'anaviy "bilim berish" modelidan voz kechib, ta'limning shaxsga yo'naltirilgan va texnologik asosga o'tkazish bilan belgilanadi. Zamonaviy pedagogikada bu yondashuvning ilmiy yangiligi quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

1. Ta'lim trayektoriyasi individuallashtiriladi. Bir vaqtning o'zida bir mavzu doirasida turli intellektual darajadagi o'quvchilar uchun alohida rivojlanish yo'llari ilmiy asoslab beriladi.

2. Kognitiv va psixologik diagnostikaning integrasiyasiga ko'ra, adabiyot darslarida o'quvchining faqat bilimi emas, balki uning psixotipi va idrok qilish uslubi (vizual, audial, kinestetik) hisobga olinadi.

Zamonaviy differensial yondashuvda adabiyot fani orqali o'quvchida faqat adabiy bilim emas, balki "hayotiy ko'nikmalar" shakllantiriladi. Hozirgi ta'lim standartlari o'quvchida kreativlik va kritik (tanqidiy) fikrlashni shakllantirishni talab qiladi. Differensial mustaqil ishlar o'quvchini faqat "ijrochi" emas, balki "tadqiqotchi" sifatida shakllantiradi.

• Ilmiy yangiligi: Har bir o'quvchining iqtidoriga qarab (liderlik, tadqiqotchilik, ijodkorlik) ularga turli ijtimoiy rollar yuklanadi (masalan, adabiy loyiha rahbari, matn muharriri, badiiy tasvirchi va h.k.).

Xulosa qilib aytganda, differensial yondashuv adabiyot darslarida "o'rtamiyona" o'quvchiga moslashishdan voz kechib, har bir o'quvchining o'z imkoniyati chegarasida maksimal natijaga erishishini ta'minlaydi. Bu esa ta'lim sifatini oshirishning eng samarali yo'lidir. Bu yondashuvning oliy maqsadi – ta'limning samaradorligini oshirish va har bir o'quvchini o'z imkoniyati darajasida komil inson va ongli kitobxon qilib tarbiyalashdir.

Adabiy ta'limda differensial yondashuvning ilmiy yangiligi – ta'limni demokratiyalashtirish va insonparvarlashtirishdir.

Adabiyot darslarida o'quvchilarning mustaqil ishini differensial yondashuv asosida tashkil etish bo'yicha olib borilgan kuzatishlar va tahlillar quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

1. Ta'lim samaradorligi: Topshiriqlarning o'quvchi imkoniyatiga mos ravishda tabaqalashtirilishi sinfdagi barcha o'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Bu esa past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirib, ulardagi "bajara olmaslik" qo'rquvini yengishga yordam beradi.

2. Ijodiy salohiyatning o'sishi: Yuqori darajadagi (kreativ) topshiriqlar iqtidorli o'quvchilarni standart qoliplardan chiqishga, badiiy asarni tadqiqotchi nigohi bilan o'rganishga yo'naltiradi. Natijada, ularning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlari jadal rivojlanadi.

3. Mustaqillik va mas'uliyat: Differensial mustaqil ishlar o'quvchida o'z ustida ishlash ko'nikmasini shakllantiradi. O'quvchi o'ziga berilgan aniq darajadagi vazifani bajarish orqali javobgarlikni his qiladi va mustaqil qaror qabul qilishni o'rganadi.

4. O'qituvchi mahorati: Ushbu yondashuv o'qituvchidan yuqori pedagogik mahorat, har bir o'quvchining imkoniyatini to'g'ri baholay olish va topshiriqlar bazasini tizimli yaratishni talab etadi.

Adabiyot darslarida mustaqil ishlarni differensial tashkil etish – o‘quvchi shaxsini markazga qo‘yuvchi zamonaviy ta‘limning eng muhim shartlaridan biridir. Eng muhimi tabaqalashtirilgan mustaqil ishlar o‘quvchida badiiy asarni mustaqil tahlil qilish va shaxsiy hayotiy xulosalar chiqarish ko‘nikmasini shakllantiradi. Bu usul nafaqat bilim berish, balki haqiqiy mustaqil fikr yurituvchi insonni tarbiyalashga xizmat qiladi. Bunda individuallik tamoyiliga ko‘ra, o‘quvchilarni "o‘rtacha" o‘zlashtiruvchi sifatida emas, balki individual psixologik va intellektual xususiyatga ega shaxs sifatida ko‘rish mumkin bo‘ladi.

Differensial yondashuv orqali o‘quvchilarda erkinlik, ishonch va muvaffaqiyat tuyg‘usi uyg‘onadi, ularning ta‘limga qiziqishi va tajribasi yanada boyiydi. Differensial yondashuv orqali o‘quvchilarning erkinlik, ishonch va muvaffaqiyat tuyg‘usini rivojlantirish esa – bu o‘quv jarayonida har bir o‘quvchining individual ehtiyojlari, salohiyati va sur‘atiga muvofiq ta‘lim berish bilan bog‘liq muhim tamoyildir. Bu yondashuvning asosiy maqsadi – har bir o‘quvchini o‘z darajasida qo‘llab-quvvatlash, ularning o‘z-o‘zini anglashini oshirish va muvaffaqiyat hissini mustahkamlash bilan belgilanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Adabiyot fani bo‘yicha milliy o‘quv dasturi. – Toshkent, 2022.
2. Бабанский Ю.К. Оптимизация учебно-воспитательного процесса: Методические основы. М.: Просвещение, 2017. – 192 с.
3. Выготский Л.С. Педагогическая психология. М.: Педагогика, 2016. – 480 с.
4. Гинецинский В.И. Педагогика. М.: Юрайт, 2018. – 487 с.
5. Ibragimov I.M. Differensial ta‘limning nazariy asoslari // O‘zbekistonda ilm-fan. – 2019. – №3. – С. 45-49.
6. Karimov. B.B. Sust o‘quvchilarga qo‘llab- quvvatlash ko‘rsatishning psixalogik asoslari // Psixologiya jurnali. – 2021. – №1. – С. 56-61.
7. Ramazonov A. A. Iste‘dodli o‘quvchilar bilan ishlashning pedagogik usullari // Pedagogoka. – 2020.- №2. -С. 34-38.